

IX – XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI IJTIMOIIY - IQDISODIY VOQEALAR TARIXIY - GEOGRAFIYASI

Bibirajab Yuldosheva

t. f. f. d. (PhD), Buxoro davlat universiteti

Ravshanova Feruza

Buxoro davlat universiteti talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit soʻzlar: Movarounnahr, tarixiy geografiya, yer egaligi, elchilik aloqalari, etnik tarkib.

Annotatsiya

Mazkur maqolada IX –XIII asrlarda Movarounnahrning ijtimoiy - iqtisodiy ahvoli, aholining etnik tarkibi, yashash sharoiti turmush tarzi va savdo-sotiq ishlari haqida soʻz yuritiladi. Shuningdek, oʻrganilayotgan davrdagi mavjud davlatlarning xoʻjalik yuritish shakllari, yer egaligi, elchilik aloqalari haqidagi maʼlumotlar ham oʻrin olgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

KIRISH.

IX-XIII asrlarda Movarounnahrning asosiy aholisi sugʻorma dehqonchilik bilan shugʻullangan boʻlsa, dashtliklar asosan chorvachilik bilan shugʻullagan. IX asrda Movarounnahrda Somoniylar, Gʻaznaviylar, Qoraxoniylar, Qarluq, Oʻgʻuz hamda Xorazmshohlar kabi yirik davlatlar boʻlgan. Bu davlatlarning har biri oʻzining boshqaruv tizimi, qoʻshini, tanga pullari va soliq tizimiiga ega boʻlgan.

ASOSIY QISM.

Movarounnahr hududida asosan Sirdaryo va Amudaryo oʻrtasidagi hududga toʻgʻri kelgan. IX-XIII asrlarda Movarounnahrning viloyat va vohalarida daryo va uning tarmoqlaridan koʻplab yangi-yangi sugʻorish kanallari qazib chiqarilib, ularning vohalarini suv bilan bogʻlab oluvchi toʻgʻonlar, muftohlar va suv inshootlari bino qilinib, suv omborlari barpo etilgan [1; 123-b]. Shu bois hududda dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan. Serunum vohalarda sugʻorma dehqonchilik madaniyati gʻallakorlik, sholikorlik, paxtachilik, sabzavotchilik, polizchilik va bogʻchilik yuqori darajada rivojlangan. Zarafshon, Qashqadaryo va Fargʻona vodiysi, Shoh, Eloq hamda Xorazm vohalarida ziroatkor aholi arpa, bugʻdoy, tariq, mosh, yasmiq, kunjut, noʻxat, zigʻir, jut va shu kabilarni yetishtirgan [1]. Mazkur davrda yer egaligining mulki sultoni, xususiy shaxslarga tegishli mulk, vaqf mulklari, jamoa mulki kabi turlari keng tarqalgan. Shuningdek, toma (umrbod berilgan yer) hamda iqto (merosi) kabi turlari ham boʻlgan.

Aynan shu asrlarda Movarounnahr aholisi etnik tarkibiga koʻra, turkiy hamda sugʻdiy etnoslarga ajralgan [3]. Sugʻdiy xalqlar asosan dehqonchilik bilan, turkiylar esa chorvachilik bilan mashgʻul boʻlishgan. XI asrda Movarounnahrda Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi bilan qarluq, oʻquz, jikil, yagʻmo va boshqa turkiy qabila va urugʻlarning Shoh, Fargʻona va boshqa viloyatlarida yashovchi turkiy aholi bilan oʻtroq hayotga koʻchish jarayoni jadallashadi. Oʻtroq dehqon va hunarmand aholi bilan

aralashib, dehqonchiik va shahar madaniyatining boy tajribasi va an'analari o'zlashtirildi. Natijada turkiy tilda so'zlashuvchi aholi Movarounnahrning asosiy nufuzlaridan biriga aylandi.

Movarounnahrda chorvachilik ham taraqqiy etgan bo'lib, asosan ot, eshak, qo'y, echki kabi hayvonlar yetishtirilgan. Chorvachilik mahsilotlaridan biri bo'lgan teridan egar, jabduq, kamon, sonдон (o'qdon), qamchin va darralar yasalgan [1].

Movarounnahr aholisining xo'jalik hayotida hunarmandchilik ham katta o'rin egallagan. Bu sohalarning taraqqiy etishi savdo-sotiqning o'sishiga olib kelgan. O'sha davrda Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Shosh kabi shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiqning markaziga aylangan [2].

Movoraunnahrda hukm surgan davlatlarning qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalari kengaygan. Xususan, Somoniylar davlatining Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan olib borgan karvon savdosida Volga daryosining o'rta oqimlarida joylashgan xazarlar va bulg'orlar bilan bo'lgan mol ayirboshlash katta ahamiyatga ega bo'lgan [1]. Savdo-sotiq ishlarida turli xil tanga pullardan foydalanilgan. O'rganilayotgan davrda bir necha davlatlarning kumush hamda mis chaqa tangalarini muomalada bo'lgan. Bulardan nisbatan mashhur va keng foydalanilgani Xorazmshohlar tomonidan zarb etilgan kumush tangalardir. Taqdiqotchilar Xorazmshohlarning kumush tangalariga tushirilgan tasvirlarga qarab ularni ikki guruhga bo'ladilar: birinchi guruh tangalarida siyovushlarning bizga ma'lum bo'lgan qadimgi tamg'asi bosilgan bo'lib, tangananing o'ng tomoniga munchog' yoki to'qa bilan bezatilgan dumaloq toj kiygan soqolli podshoning bejirim qilib ishlagan rasmi tushirilgan. Ikkinchi guruhga mansub tangalar esa ancha keng tarqalgan bo'lib, ulardan O'rta Osiyoning turli turli hududlarida keng foydalanilgan. Toshkent vodiysidan Shimoliy Hindistongacha bo'lgan hududlarda muomalada bo'lgan hamda tarixda "geray tangalari" nomi bilan mashhur bo'lgan mazkur tangalarning yuzida podshoh tasviri, orqasida chavandoz tasvirlari tushirilgan [7]. Bundan tashqari, Xorazm tangalaridan Buxoro hududida ham keng foydalanilgan.

XI-XIII asr boshida Movarounnahrda tovar - pul munosabatlari nihoyatda rivoj topib, u mamlakatning deyarli hamma uzoq va yaqin viloyatlarni qamrab olgan edi. Qoraxoniylarning oltin, kumush va mis chaqa tangalari eloqxonlar tomonidan zarb qilingan [4]. X asrda Buxoroda tilla (dinorlar), kumush (dirhamlar), mis (chaqa) tangalar somoniylar davrida zarb qilingan bo'lib, ular yuqori sifatli kumushdan bo'lganligi tufayli xalqaro savdoda juda ko'p foydalanilgan. Shu boisdan, X asrda somoniylar dirhamlari Eron, Iroq, Kavkazorti, Sharqiy va Shimoliy Yevropada foydalanilgan [5]. Savdogar savdo ishlari tufayli qo'shni davlatlarga o'zi bilan kumush yoki oltin tangalar olib yurmagan. Pulning o'rniga Somoniylar davrida tashqi savdo muomalasida sarroflik cheklaridan keng foydalanilgan. Savdogarlar o'z pullarini shahardagi sarroflardan biriga topshirib, undan tegishli hujjat, chek olardilar. Chek so'zi (forsa-termin) degan ma'noni anglatadi [9].

Xalqaro savdoda so'g'diy va Xorazm savdogarlarning o'rni baland bo'lgan. Xorazmlik savdogarlar ayrim shaharlarda doimiy ravishda tijorat ishlari bilan shug'ullanardilar. Jumladan, Al-Istahriy "Xurosonda bironta katta shahar yo'qki, unda ko'plab Xorazm aholisi yashamasin", - deb ta'kidlasa, uning zamondoshi bo'lgan al-Maqdisiy "Niso shahridagi yer mulklarning katta qismi xorazmlik savdogarlar qo'lida bo'lgan", - deb ko'rsatgan.

IX-XIII asrlarda hududdagi davlatlarning boshqaruv shakli ixcham va qulay bo'lib, bu ayniqsa G'aznaviylar davlatida yaqqol namoyon bo'lgan. G'aznaviylar boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Dargohga oliy hukumdor (g'aznaviy hukumdorlar "amir" unvoniga ega bo'lganlar) hayoti va faoliyati bilan aloqador xizmatlar, amallar kirgan. Ular orasida "hojiblik" xizmati alohida etiborga loyiq. Hojiblik lavozimining ulug' hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib, hojib joma dor kabi shakllari bor.

Manbalarda ijroiya hokimiyatida devon, yani bosh vazir devoni, harbiy ishlar devoni, diplomatik va boshqa rasmiy tadbirlar, hujjatlarni rasmiylashtirish, tuzish devoni, hisob-kitob moliya devoni hamda pochta-xabar devoni kabi turlari borligi qayd etilgan [2]. **Xorazmshohlar markaziy hokimiyatida**

harbiy boshqaruv idorasi Devon al-lazr deb yuritilgan [10].**XULOSA**

IX-XIII asrlarda Movarounnahr hududida Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar singari nufuzli davlatlar hukm surgan. Ularning aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Mamlakat savdo-sotig'i va va pul muomalasida asosan kumush va mis chaqa tangalardan foydalanilgan. Umuman olganda, mazkur davrda Movarounnahrning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hukmron sulola olib borgan davlat boshqaruviga bog'liq bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Муҳаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 2004. – В.106-123.
2. Азамат З. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент, 2000. – В.107; 117.
3. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент.2019. –В.394.
4. Saidboboyev Z. Tarixiy-geografiya. –Toshkent. 2010. – В.114.
5. Mirjonovna, Y. B. (2021). CHO'L SHAMOLLARINING BUXORO SHAHAR TARIXIDA TUTGAN O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 637-645.
6. Sag'dullayev A.S. O'zbekiston tarixi. – Toshkent.2018, – В.296.
7. Жабборов И. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. – Тошкент, 1999. – Б.81.
8. Mirjonovna, Y. B. (2021). Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem?. *Academicia Globe*, 2(01), 10-17.
9. Muhammadjonov A.R. O'zbekiston tarixi darslik. – Toshkent, 2017. – В.49.
10. Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржонова Бухоро давлат университети докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).
11. Шойимардонкулов, М. Д. (2023). ЎЗБЕКИСТОН ПАРЛАМЕНТИДАГИ КЎПЧИЛИК ВА ПАРЛАМЕНТДАГИ МУХОЛИФАТ ИНСТИТУТЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. *SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI*, 2(4), 155-160.
12. Ҳайтов, Ж. Ш. (2023, March). Ўзбекистонда Янги Навларининг Етиштирилишида Илмий Муассаса Ва Селекционер Олимларнинг Роли. In *International Scientific and Practical Conference "The Time of Scientific Progress"* (Vol. 2, No. 4, Pp. 5-11).
13. Yuldosheva, B. M. (2022). Somoniylar VA Qoraxoniylar Davrida Buxoro Shahar Madaniyatining Rivojlanishi Va Atrof-Muhitga Munosabat. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(3), 1307-1313.
14. Nayitov, J. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА МЕВАЛИ ДАРАХТЛАРИНИНГ МАҲАЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ НАВЛАРИ ТАРИХИГА ДОИР. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 27(27).
15. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржонова, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.

16. Shoimardonkulovich, Y. D., & Kadirovna, S. N. (2022). GREEN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje*, 23, 102-104.
17. Yuldosheva, B. M. ., & Islomova, S. J. qizi. (2023). IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyasi. *Miasto Przyszłości*, 41, 132–135.
18. Aymatova, Z. (2022). HOFIZ TANISH BUXORIY VA UNING “SHARAFNOMAYI SHOHIIY” ASARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 20(20).
19. Hayitov, S. (2023). ЛАТИФХЎЖА ҚОСИМХЎЖАЕВ–БУХОРО ТАДБИРКОРЛАРИНИНГ ТАНИҚЛИ ВАКИЛИ ВА ҲОМИЙСИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 27(27).
20. Jamolovich, R. K. (2021). From the history of the trade companies of Germany in Bukhara (1920-1924). *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 2(2), 65-69.
21. RAHMONOV KAMOL JAMOLOVICH. (2021). TARIX FANI O‘QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATINI OSHIRISHDA HAMKORLIK STRATEGIYALARIGA ASOSLANGAN DARSLARNI TASHKIL ETISHNING AMALIY AHAMIYATI (“1918-1939 yillarda fransiya” mavzusi misolida). *FAN, TA’LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(02), 54-62.
22. Aymatova, Z. (2023). Properties of the Citizens of the Emirate of Bukhara (End of the 19th and the Beginning of the 20th Century). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 40(40).